

Maqola turi (Maqola, Falsafa, Sharh)

O'zbekistonda 1925-1940 yillarda "Nomenklatura" va milliy rahbar kadrlarga nisbatan siyosiy talablar

Iymanova Dilafruz Abdimannobovna  ^{1*}

¹ University Of Economics And Pedagogy; Andijon; O'zbekiston; Iymanova.d@gmail.com.

* Yozishmalar: Iymanova.d@gmail.com; Tel.: (171003; Andijon viloyati, Oltinko'l tumani, Mehnat MFY, Do'stlik ko'chasi 45-uy; University Of Economics And Pedagogy NOTM; "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası professori v.b.; Andijon; O'zbekiston)

Abstrakt

Mazkur maqolada 1925–1940-yillarda O'zbekistonda amal qilgan stalincha nomenklatura tizimining milliy rahbar kadrlarga nisbatan qo'ygan ijtimoiy-siyosiy talablari hamda ularning amaliy ifodasi ilmiy asosda tahlil qilingan. Maqolada nomenklatura tizimining mahalliy rahbar kadrlar faoliyatini qat'iy nazorat ostiga olishi, ularning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini cheklashi hamda ijtimoiy-siyosiy faolligini sun'iy ravishda tartibga solishi ochib berilgan. Shuningdek, milliy kadrlarga nisbatan ishonchsizlik munosabati, ularni doimiy ravishda mafkuraviy tekshiruv va siyosiy nazoratda ushlab turish amaliyoti tizimli xarakter kasb etgani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: stalinizm, nomenklatura, proletariat, rahbar kadrlar, partiya, markaz, ma'muriy-buyruqbozlik, ijtimoiy hayot, mahalliy kadr, xodim, apparat, kommunistik mafkura, kommunistik ahloq, shovinizm, avtoritar rejim, lavozim, xo'jalik tashkilotlari, ziyolilar, mahalliyashtirish, sanoat, ishchilar.

Type of the Paper (Article, Philosophy, Review)

Political demands to the "Nomenclature" and national leading cadres in Uzbekistan in 1925-1940

Iymanova Dilafruz Abdimannobovna  ^{1*}

¹ University Of Economics And Pedagogy, Andijan; Uzbekistan; Iymanova.d@gmail.com

* Correspondence: Iymanova.d@gmail.com; Tel.: (171003; Andijan region, Oltinkol district, Mehnat MFY, Dostlik street, House 45; University of Economics and Pedagogy; Acting Professor, Department of Social and Humanitarian Sciences; Andijan; Uzbekistan)

Academic Editor: Mirzayev Sarvarbek
Avazbekovich

Received: 20.07.2026

Revised: 02.08.2026

Accepted: 15.08.2026

Published: 24.08.2026

Copyright: © 2026 by the authors.
Submitted for possible open access
publication under the terms and
conditions of the [Creative Commons](#)
[Attribution \(CC BY\) license](#).

Abstract

This article analyzes the socio-political requirements of the Stalinist nomenclature system in Uzbekistan in 1925–1940 for national leadership personnel and their practical expression on a scientific basis. The article reveals that the nomenclature system strictly controlled the activities of local leadership personnel, limited their ability to make independent decisions, and artificially regulated their socio-political activity. It also substantiates

the fact that the attitude of distrust towards national personnel, the practice of constantly keeping them under ideological control and political control, became systemic.

Keywords: stalinism, nomenclature, proletariat, leadership, party, center, administrative command, social life, local staff, employee, apparatus, communist ideology, communist ethics, chauvinism, authoritarian regime, position, economic organizations, intellectuals, localization, industry, workers.

1. Kirish

I.V.Stalin rahbarligida qaror topgan nomenklatura tizimi rahbar kadrlarni tanlash, joylashtirish va nazorat qilishning samarali, biroq mafkuraviy jihatdan qattiq cheklangan mexanizmlarini shakllantirdi. Mazkur tizim orqali partiya-davlat apparati barcha boshqaruv bo'g'inlarida kadrlar ustidan to'liq nazorat o'rnatishga erishdi. O'zbekiston singari milliy respublikalarda stalincha nomenklatura siyosati mahalliy rahbar kadrlarga nisbatan alohida ijtimoiy-siyosiy talablar qo'yilishi bilan tavsiflanadi. Jumladan, milliy kadrlardan avvalo markaz siyosatiga mutlaq sadoqat, sinfiy-mafkuraviy barqarorlik, partiya intizomiga so'zsiz bo'ysunuvchi hamda mustaqil fikrlashdan voz kechish talab etildi. Bunday yondashuv kadrlarning kasbiy mahorati va mahalliy sharoitlarni bilish darajasidan ko'ra, ularning siyosiy ishonchliligiga ustuvor ahamiyat berilishiga olib keldi. Nomenklatura tizimi doirasida milliy rahbar kadrlar faoliyati doimiy ravishda nazorat, tekshiruv va qayta baholash jarayonlari bilan qamrab olindi. Ularga nisbatan ishonchsizlik munosabati, mafkuraviy bosim va siyosiy ehtiyotkorlik siyosati tizimli xarakter kasb etdi. Natijada mahalliy rahbarlar markaz manfaatlarini amalga oshiruvchi ijrochi subyektlarga aylantirilib, ularning tashabbuskorlik va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlari cheklab qo'yildi. Mazkur maqolada aynan shu masalalar kompleks tahlil qilinib, sovet kadrlar siyosati mexanizmining mohiyati va oqibatlari yoritib beriladi.

2. Adabiyotlar sharhi

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida 1925–1940-yillarda O'zbekistonda partiya-sovet boshqaruv tizimida faoliyat ko'rsatgan siyosiy va jamoat arboblari hamda xo'jalik rahbarlarining ilmiy-ma'rifiy merosi muhim manba sifatida o'rganildi. Xususan, T.Risqulov, F.Xo'jayev, A.Ikromov, Y.Oxunboboyev, Sh.Ziyamov, J.Jamolov kabi davrning yetakchi arboblari tomonidan qilingan ma'ruzalar, nutqlar, maqolalar va risolalarda kadrlar siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va boshqaruv amaliyotiga doir muhim g'oya va qarashlar aks etgan. Ushbu manbalarda respublikada rahbar kadrlarni tayyorlash, joylashtirish hamda nazorat qilish mexanizmlarining shakllanish jarayoniga oid qator mulohazalar bayon etilgan.

Shuningdek, mustaqillik davrida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mazkur muammoni kompleks tarzda yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan B.Xasanov, R.Shamsudinov, R.Bazarbayev, S.Tursunov, Sh.Ergashev, O.Rashidov, N.Rasulova va D.A.Iymanova kabi olim va olimalarning ishlarida O'zbekistonda sovet boshqaruv tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, uning mafkuraviy asoslari hamda markazlashgan hokimiyat mexanizmining mohiyati ilmiy tahlil qilingan. Shu nuqtai nazardan, stalincha nomenklatura tizimining milliy rahbar kadrlarga nisbatan ijtimoiy-siyosiy talablari va ularning amaliy ifodasini ilmiy asosda tahlil qilish, mazkur siyosatning O'zbekistondagi boshqaruv tizimi, kadrlar salohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko'rsatgan ta'sirini ochib berish bugungi tarixshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

3. Muhokama va natijalar

O'zbekistonda milliy rahbar kadrlarni shakllantirish, tanlash, tayyorlash va joylashtirish, ularni pastdan yuqori lavozimlarga ko'tarish 1925-1941 yillarda nihoyatda og'ir, murakkab, o'ta ziddiyatli davrda amalga oshirildi. Jamiyatdagi bu ziddiyatli, og'ir holat milliy rahbar kadrlar taqdiriga ham ta'sir etmay qolmadi. Davlat, xo'jalik jamoat tashkilotlariga tub yerli xalqlarimiz vakillarini turli rahbar lavozimlarga ko'tarish masalalarini ko'pchilik kadrlarning tashabuskorligi, g'ayrat-shijoatlarini, ishda yaxshi faoliyat ko'rsatganliklarini puxta, hissiyotlarga berilmasdan, chuqur mulohaza va mushohadalar bilan har tomonlama xolis tahlil etish ishda maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan rahbar kadrlarni tayyorlash, tarbiyalash va ular orasidan qobiliyatlarini rahbar lavozimlariga ko'tarish borasida sovet hukumati qabul qilgan qarorlar va qonuniy kuchga ega bo'lgan boshqa hujjatlarning ahamiyati, rasmiy va jamoat tashkilotlarining amaliy faoliyatlarini tan olgan holda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarini ham ko'rsatib o'tish tadqiqotda alohida muhimdir[1].

Stalin rahbarligi davrida sovet hokimiyati aholining keng qatlamlari ongiga ta'sir ko'rsatishda mafkuraviy targ'ibot, siyosiy tarbiyadan tizimli ravishda foydalanib, kommunistik g'oyalarni jamiyat hayotining barcha sohalariga singdirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirdi. Bu jarayonda matbuot, ta'lim muassasalari, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari hamda partiya tuzilmalari orqali "tinch" usullarda aholini siyosiy-ideologik qayta shakllantirishga erishish ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi. Shu bilan birgalikda sovet "qolipi"ga tushadigan kadrlarni tayyorlash ishlarini keng jadallashtirdi. Mustaqil siyosiy pozitsiya va shaxsiy xulosalarga ega bo'lgan milliy rahbar kadrlar faoliyati sovet boshqaruv tizimida qat'iy partiyaviy intizom, doimiy mafkuraviy nazorat hamda turli shakldagi siyosiy-psixologik ta'sir mexanizmlari sharoitida amalga oshirildi. Ularga nisbatan mafkuraviy kampaniyalar, tanqid va o'z-o'zini tanqid qilish amaliyoti, partiya yig'ilishlari hamda xizmat faoliyatini qayta baholash jarayonlari qo'llanilib, natijada mazkur kadrlar o'ta murakkab va ziddiyatli siyosiy muhitda faoliyat yuritishga majbur bo'lgan. I.V.Stalin o'zining yo'rig'iga mos tushadigan kadrlarni nomenklatura talablari asosida tanlab, yuklangan har qanday vazifani bajarishga qodir davlat apparatini yaratish harakatini amalga oshirdi. Stalinning bu tartibdagi kadrlar siyosatiga nisbatan qarama-qarshiliklarga qaramay u o'zi hohlagan tizimni yaratishga muvaffaq bo'ldi.

O'zbekiston SSR tashkil topgan dastlabki bosqichda respublikada mahalliyashtirish siyosatini amalga oshirish, mahalliy aholi vakillarini davlat va partiya boshqaruv tizimiga jalb etish bilan bog'liq muammolarni hal etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Xususan, 1925 yildan boshlab sovet hokimiyati tomonidan mahalliy millat vakillarini rahbarlik lavozimlariga tayinlashni kengaytirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi yutuqlari ularning faoliyatlari bilan bog'liq edi. Mahalliy rahbar kadrlarning xalqona xizmatlari tufayli milliy ruhdagi davlatchilik tuzilmalari yuzaga kela boshladi. 1925 yilda respublika sovet organlarida mahalliy millat vakillaridan chiqqan xodimlar miqdori 17%ga, viloyatlarda 45%ga, uyezdlarda 90%ga yetgan edi[2]. Respublika hukumatida ishlagan vatanparvar milliy yetakchi rahbarlardan bo'lgan T.Risqulov, Q.Otaboyev, S.Tursunxodjayev, I.Xidiraliyev, A.Raximboyev, N.To'raqulov, F.Xo'jayev, A.Ikromov, A.Fitrat va boshqa ko'plab rahbar kadrlar markazdan kelgan bolshevik kadrlarning norozi munosabatlariga qaramasdan bilimli, malakali, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan mahalliy kadrlarni yangi hayot qurilishiga faol jalb etishga intilganlar. Ularning harakatlari natijasida milliy kadrlar xalq ta'limi sohasi, madaniy ma'rifiy muassasalarda, nashriyot organlarida o'z xalqiga xizmat qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar[3].

O'zbekistonda 1925-1930 yillarda sovet davlati tomonidan davlat boshqaruv apparatlarini mahalliyashtirish borasida olib borilgan siyosatning ko'zga tashlanadigan

tomonlaridan yana biri shundaki, asosan, birinchi rahbar xodimlargina mahalliy millat vakillaridan qo'yilgan bo'lib, birinchi rahbar xodimlarining o'rinbosarlari, mutaxassislar asosan markazdan jo'natilgan yevropa millati vakillaridan iborat bo'lib qolaverdi. Mazkur vaziyat, ayniqsa, O'zbekistonda alohida dolzarblik kasb etdi, bu yerda milliy ziyolilar soni juda ozchilikni tashkil qilardi, xalq xo'jaligi va madaniyat sohasi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning keng tarmog'i xali shakllanmagan edi. Shu sababli boshqa ayrim respublikalarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham keyinchalik turli kurslarda, maktablarda kommunistik universitetlar va akademiyalarda o'qitish, malakasini oshirish sharti bilan ishchilar va dehqonlarni rahbarlik va tashkilotchilik lavozimlariga ko'tarish usulidan keng foydalanildi. 1925-1930 yillarda mahalliy millat vakillari bo'lmish sovet, jamoat, xo'jalik organlari rahbarlarining, zavodlar va fabrikalar direktorlarining, kolxozlar va sovxozlar yetakchilarining aksariyat ko'pchiligi ishchilar, dehqonlar va batraklardan ko'tarilgan kishilar bo'ldi[4].

Sovet tuzumi hukmronligi davrida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatgan partiya va davlat arboblari bugungi istiqlol davri mezonlari va o'lchovlari asosida tadqiqot jarayonida xolisona yoritish zarur. Ular yashagan davrning mohiyatidan kelib chiqib masalaga yondashadigan bo'lsak, sho'ro hukmronligi davrida milliy manfaatlariga qarshi ish qilishga majbur bo'lgan milliy arboblarning xato va kamchiliklari ular yashagan davrning murakkab jarayonda ekanligi sabab bo'lganligini ko'rish mumkin. Milliy ziyoli rahbar kadrlarni "burjua millatchiligi", "boshqacha fikrlovchilar" ya'ni antisovet g'oyalariga tarafdorlikda ayblab, doimiy nazorat va ta'qib qilishlar to'xtamagan. Biroq milliy rahbar kadrlar siyosiy ta'qiblarga qaramasdan vijdonan yurtning, mahalliy aholining manfaatlarini qattiq turib himoya qilishni davom ettirdilar. Masalan, Turor Risqulov RKP (b) XII syezdida (1923 y. aprel) so'zlagan nutqida sovet tuzumi o'rnatilganiga qariyb yetti yil bo'lgan bo'lsa-da, "Sart (o'zbek) aholisi hayotida hech qanday ijtimoiy siljishlar bo'lmadi" [5] deb dadillik bilan haqiqatni gapirgan. Xuddi shu fikrni milliy respublikalar mas'ul xodimlarining IV kengashida (1923 y. aprel) S.Xo'janov ham aytgan edi. O'sha yilning o'zida o'lkani bir guruh mas'ul xodimlari ochiq xat e'lon qilib, unda "Turkistonning oktabrdan keyingi rivojlanishiga tanqidiy baho berdilar" [6]. Milliy rahbar kadrlardan bo'lgan jamoat arbobi Qayg'usiz Otaboyev (1887-1937) ham guruhda bor edi. O'z siyosiy faoliyati davomida Q.Otaboyev Markazning ayirmachilik, shovinistik siyosatiga qarshi bir necha bor o'zining dadil fikrlari bilan chiqdi. U Markaz tomonidan yuborilgan emissarlarning mahalliy xalqlarga nisbatan qo'llayotgan usullarini tanqid qilib, Rossiyadan kelgan xodimlar tub aholining o'lkani mustaqil boshqara olish qobiliyatiga ishonmayotganliklari, o'zlari esa Turkistonning turmush tarzi, sharoitlarini yaxshi bilmasdan turib, hukumatning ma'sul lavozimlariga da'vogarlik qilishlari haqida TKP sovetlarining X qurultoyi minbaridan turib gapirgan edi. Q.Otaboyev milliy rahbarlardan birinchilar qatorida qarshilik harakatiga to'g'ri baho bergan. Uning 1922 yil 18 iyulda Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasining VI plenumida qilgan ma'ruzasi keskin tanqidiy va ochiqdan-ochiq qarshilik ruhida edi. Q.Otaboyev qarshilik harakatiga harbiy yo'l bilan yo'q qilib bo'lmaydigan xalq qo'zg'oloni deb baho beradi va ushbu harakat ishtirokchilari bilan siyosiy va iqtisodiy usullarni qo'llab, tinch muzokaralar olib borish taklifini kiritadi[7].

1925 yil 24-28 sentabrda O'zbekiston Kompartiyasi MKning IV plenumi bo'lib o'tdi. Plenumda davlat apparatini mahalliyashtirish masalasi ko'rib chiqilib, mahalliy millat vakillarini partiya, sovet, xo'jalik ishlariga jalb qilish yuzasidan qator qarorlar qabul qilindi. Qarorda davlat apparati va xo'jaliklarni mahalliyashtirish siyosati O'zbekiston Kompartiyasi MK tomonidan amalga oshirilayotgan tadbir bo'lib, uni amaliyotga tatbiq etish kerakligi, bunga partiya kasaba uyushmalari, ishchi tashkilotlarini to'liq jalb qilish, mahalliy aholining proletar va yarim proletar ommasini davlat apparati ishlariga tortish, buning uchun kasaba uyushmalari mas'uliyatini oshirish lozimligi ta'kidlanadi[8].

Markazning davlat apparati va xo'jalik tashkilotlarini mahalliyashtirish ishlarini viloyat va uyezdlarda ham namunali tashkil qilish uchun viloyat partiya qo'mitalari huzurida yig'ilishlar tashkil etish, uning siyosiy ahamiyatini joylarda tushuntirish kerakligi qayd qilindi. Davomi sifatida 1925 yil 22-30 noyabrda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston kommunistik partiyasining II syezdida "Partiya, sovet, xo'jalik, kasaba uyushmalari va kooperativ tashkilotlariga mahalliy aholini jalb qilish" masalasi ko'rib chiqildi. Boshqaruv ishlariga ishchi, dehqon va ziyolilardan mahalliy kadrlar tayyorlash zarurligi ta'kidlandi. Eng ilg'or mehnatkash vakillarini rahbarlik lavozimlariga ko'tarish izchil olib borilgan bo'lsada, lekin xali bu sifat talabiga javob bera olmasligi ko'rsatilgan[9]. Yig'ilishda qilingan ma'ruzada yana 1925 yil sentabridan 1926 yil oktabrgacha komissiyaning amalga oshirgan ishlari xususida bir qancha fikrlar bildiriladi. Jumladan, qisqa muddatli o'quv kurslarida mahalliy millat vakillari orasidan mashinistlar, hisobchi, buxgalter, konduktor, temir yo'l ishchi xodimlari, mas'ul kotiblar, markaziy organ boshqaruvchilari va boshqa kasb mutaxassislari tayyorlash nazarda tutilgan. Mahalliy o'zbek mehnatkashlariga yaqin hamda tushunarli bo'lgan tilda tashkil etish, o'zbek tilida ta'lim va madaniy oqartiruv tashkilotlari-maktablar, klublar, o'quv zallari, kutubxonalar, teatrlar ochish, keng xalq ommasiga yetib boradigan gazetalar nashr qilish chora tadbirlari belgilandi[10]. Tabiiyki, bunday ish va o'quv kurslar tashkil qilish, ular uchun sharoitlar yaratish, o'qituvchilar bilan ta'minlash, yotoqxona, stipendiya, yo'l qatnovi xarajatlari, mahalliyashtirish markaziy komissiyasining 3 shtat birligida xodimlariga maosh to'lash turli moddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Mahalliyashtirish markaziy komissiyasi o'z mablag'iga ega bo'lmagan. Bundan tashqari yig'ilishda mahalliyashtirish ishlarida kasaba uyushmalarining sustkashlik bilan yondoshganliklari, yangi ochilgan sanoat korxonalariga mahalliy millatga mansub xodimlarni jalb qilishga faol ishtirok etmayotganliklari, hatto ba'zi joylardagi kasaba uyushma bo'limlari 1926 yil aprel oyida Revkomning o'zbeklashtirish bo'yicha maxsus 48-qarorini bekor qilish bo'yicha qarorlar qabul qilishganligi[11] haqida fikrlar bildiriladi.

Stalincha "nomenklatura" milliy rahbar kadrlariga nisbatan ijtimoiy, siyosiy talablari bajarilishi uchun 1925 yil 8 fevralda Buxoroda O'zbekiston kompartiyasining I qurultoyi o'z ishini boshladi. Unda sho'rolar ittifoqi Kommunistik partiyasining filiali bo'lgan O'zbekiston Kommunistik (bolsheviklar) partiyasi tashkil etildi. Partiya Markaziy Qo'mitasi saylandi. Markaziy Komissiya Plenumi partiyaning oliy organlari, sovet hukumati va kasaba uyushma organlari vakillari 14 kishidan iborat bo'ldi. V.I.Ivanov va A.Ikromov Markaziy Qo'mitaning mas'ul kotiblari etib saylandi[12]. Akmal Ikromovning rahbarlik faoliyati juda murakkab jarayonlarda kechgan. U O'zbekiston Kompartiyasining 1925-1937 yillardagi birinchi rahbari sifatida Moskvaning barcha buyruq va topshiriqlarini vijdonan qarshilik qilmasdan bajaradi. Shu bilan birgalikda davlat tashkilotlari boshqaruvida kadrlarning mahalliyashtirilishiga ham e'tiborini qaratadi. 1926 yil 26 mayda bo'lib o'tgan xalq maorifi xodimlarining O'lka kengashida A.Ikromov ham shunday deydi, "Ohirgi vaqtlarda juda ko'p ishchi va dehqonlar sovet rahbarlik ishlariga ko'tarildi. To'g'ri ular, xali ayrim ishlarni yaxshi bilishmaydi, lekin asosiysi ishchi va dehqonlar hukumatning hoxish irodalarini hamma vaqt a'lo bajarishga tayyordirlar. O'sha yili mart, iyul oylarida O'zbekiston bo'yicha birinchi marta pastdan yuqoriga ko'tarish ishlari qanday olib borilayotgani sarhisob qilindi. Hammasi bo'lib 130 kishi rahbarlik lavozimiga ko'tarilgan bo'lsa, shulardan faqat 42 kishi mahalliy millat mehnatkashlari vakillari edi[13].

O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi Fayzulla Xo'jayev tub xalqlardan mahalliy kadrlarni tayyorlash va ularni xalq xo'jaligiga keng jalb etish, yuqori lavozimlarga ko'tarishda faollik qildi. Uning tashabbusi bilan 1925 yil 3 martda Bobon Mavlonbekov raisligida "Davlat apparatini mahalliyashtirish Markaziy komissiyasi" tuzildi. Akmal Ikromov, Raim Inog'omov va boshqalar unga a'zo bo'lishdi. Markaziy

komissiyaning Samarqand, Toshkent, Zarafshon, Farg'ona va boshqa viloyatlarda ham bo'limlari tashkil etildi. Mahalliyashtirish komissiyasi rahbariyati zimmasiga O'zbekistondagi o'quv yurtlari, ilmiy va madaniy-oqartiruv tashkilotlari, sanoat korxonalarini mahalliyashtirish asosiy rejasini ishlab chiqish yuklatildi. Shahar va qishloq mehnatkash ommasini mamlakatni rivojlantirishda yerli aholi xodimlarini faol ishtirok etishga jalb qilish nihoyatda muhim va zarur edi. Bu vazifani mas'ul rahbarlik ishiga asosan ishchi va dehqonlar ommasi orasidan chiqqan tadbirkorlarni ko'tarish yo'li bilan hal qilish mumkin edi. Natijada 1925 yilning 3 oyi ichida markaziy tashkilotlarga 250 dan ziyod ishchi va dehqonlarni rahbarlik ishiga ko'tarish amalga oshirildi, ularning yarmidan ko'prog'i mahalliy millat vakillari edi[14].

Rahbar lavozimlarga ko'tarish ko'proq partiyaning ko'rsatmalariga asosan, Moskva hukmi bilan hal qilinardi. Partiyaviy tavsifnoma asosida rahbarning egallab turgan lavozimiga loyiqligi yoki uni yuqori lavozimga ko'tarish mumkinligi to'g'risida xulosa chiqarilgan. Ittifoqdosh respublikalar, o'lkalar, viloyatlar va tumanlar miqyosida ham tegishli partiya qo'mitalari xuddi shunday ishlarni amalga oshirdilar. Bu tadbirlar bilan rahbarlik lavozimlarining muayyan nomenklaturasini egallash partiya organlari rahbarligi va nazorati ostida amalga oshirilgan kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishning nomenklatura prinsipiga tashkiliy asoslar yaratildi. Buning natijasida davlat idoralarining mutaxassislari, xodimlari ko'proq yevropaliklardan iborat bo'lib qoldi. Kadrlarni mahalliyashtirish bo'yicha arxiv ma'lumotlarida 1926 yil 1 martdan 1926 yil 1 sentabrgacha yevropa aholisi 1010 tadan 1244 tagacha ko'paygan, mahalliy aholi esa 358 dan 257 kamaygan[15]. Mahalliyashtirish masalasidagi muammoli tomonlardan biri apparatning miqdoriy va sifatli ishining yetarli emasligi bo'lib, institutga yuborilgan mahalliy ishchi kadrlar bilan ko'rsatma bo'yicha barcha aloqalar darhol uzilgan. Xodimning xizmatdagi pozitsiyasi o'rganilmagan[16]. Natijada, mamlakatimizda mahalliyashtirish, xodimlarning umumiy tarkibiga nisbatan keskin 8,5% ga qisqarishiga olib keldi. Bir tarafdin, bunday pasayish Markaziy komissiyaning sust ishlaganidan dalolat beradi. Kadrlar almashinuvi monitoringi yo'qligi va xodimlarning qo'nimsizligi, mahalliy kadrlar yevropaliklar kadrlar bilan almashinuvi mahalliyashtirishga ommaviy to'siq bo'lganligi aniq ko'rinadi[17]. Lavozimga ko'tarish yo'llari va shakllarini takomillashtirish maqsadlarida O'zbekiston hukumati 1927 yil 7 martda "Davlat apparatiga ishchi va xizmatchilarni jalb qilish bo'yicha navbatdagi vazifalar to'g'risida" qaror qabul qiladi. Unda lavozimga ko'tarish bo'yicha ishlardagi xatolar ko'rsatilgan. Ko'p rahbarlarning milliy kadrlarni shakllantirishdek o'tkir muammoni hal qilishga yuzaki yondashayotganligi qayd qilingan. Qarorda mahalliyashtirish sur'atlarini oshirish zarurligiga alohida e'tibor qaratildi. Chunki ko'rsatilgan davrda O'zbekiston davlat apparatida mahalliy millatlarga mansub xodimlarning ulushi atigi 24,7%ni tashkil qilardi[18]. O'zbekistonda mahalliyashtirish siyosatini amalga oshirish tub joyli bo'lmagan aholining bir qismi tomonidan xavfsirash bilan qabul qilingan hamda bu holat "rus kadrlarini kamsitish va siqib chiqarish", "tub aholiga ortiqcha imtiyozlar berish" qabilida noto'g'ri talqin etilgan[19]. Tadqiqot davomida respublikada kadrlar siyosatida mahalliyashtirish bo'yicha ko'plab qarorlar qabul qilinganligi ko'rinadi, ijrosiga kelganda esa turg'unlik va to'siqlar, bosimlar yetarli darajada yuzaga kelganligi ko'rinadi.

O'zbekiston siyosiy elitasining katta qismini XX asrning 30 yillarida ham yevropalik millatlar vakillari tashkil qilib qolaverdi. 1931 yil Respublikada 139 nafar rahbar xodim bo'lgan bo'lsa, shundan 66 nafari yoki 47,5%i mahalliy millat vakillari edi. 1932 yilda esa 170 nafar xodimdan 84 nafari, ya'ni 49,4% foizi, 1933 yilda 286 nafar rahbar xodimning 120 nafari mahalliy millat vakillaridan rahbar xodimlar, ularning o'rinbosarlari va bo'lim boshliqlarining 22,75 foizi, mutaxassislarning 7,7%, yo'riqchilarning 26%i mahalliy millat vakillari bo'lgan xolos[20]. O'zbekistonda mehnatkash aholining madaniy qoloqligi va

o'zbeklar orasida malakali xodimlar hamda mutaxassis kadrlarning yo'qligidir" [21], deb bir tomonlama xulosaga kelindi.

O'zbekistondagi kadrlarning qo'nimsizligi sabablariga va mahalliy millat vakillaridan yetuk kadrlar tayyorlash masalasiga hukumat boshlig'i F.Xo'jayev ham alohida e'tibor bergan. U kadrlarni bir joyda uzog'i bilan 6 oygina ishlab, keyin boshqa ishga o'tkazib yuborilishi, davlat apparatini mahalliyashtirishning qisqa vaqtda amalga oshirilishi notug'ri ekanligini ta'kidlab, mahalliy millatlardan yuqori malakali kadrlar tayyorlanishi uchun yetarli darajada ta'lim berilishi va undan keyin bu kadr 4-5 yil bir joyda ishlashi lozimligini aytgan[22]. O'zbekistonda bu kabi yuz berayotgan o'zgarishlardan qoniqmaganligini F.Xo'jayev o'zining bir qancha tanqidiy chiqishlarida bildiradi. Buxoro hukumati boshlig'i bo'lgan F.Xo'jayev bolsheviklar bilan yaqin munosabatlariga qaramasdan ilk rahbarlik faoliyati kunidanoq milliy respublika manfaatlarini ham o'ylab mustaqil siyosat yuritishga, Sovet Rossiyasi va xorijiy davlatlar bilan teng huquqli aloqalar o'rnatishga harakat qildi[23]. F.Xo'jayev O'zbekiston hukumatiga boshchilik qilgan yillari O'zbekistonning, O'rta Osiyo respublikalarining iqtisodiy, xo'jalik va madaniy taraqqiyoti yo'lida zo'r tashabbuskorlik va tashkilotchilik bilan ish olib bordi. U respublika sanoati, xalq xo'jaligi va madaniyatining gullab-yashnashida katta ishlar qildi. Birgina fakt: respublikada 1926 yilda birinchi elektr stansiyasi-Bo'zsuv GESining ishga tushirilishi uning nomi bilan bog'liq. U ilm-fan va maorifimizning jonkuyari edi[24]. Mahalliy millatparvar rahbar F.Xo'jayev, "Sho'ro apparatining ixtisosli kuchli kadrlar bilan to'ldirmasdan uni, "tilyog'lamachi", yot unsurlardan tozalamasdan, undan byurokratizm va boshqa ishga rasmiyatchilik ko'zi bilan qarovchilarni supurib tashlamasdan, sho'ro apparatini keng ishchi va kolxozchilar ommasiga yaqinlashtirmasdan, ularni bevosita hukumatni idora qilishga qatnashishlariga erishmasdan, kengaytirmasdan, bu apparatni yerlilashtirmasdan, ularni aholining asosiy ommasiga yaqinlashtirib bo'lmaydi. Bularni qilmasdan turib, sho'ro apparatimiz oldiga qo'yilgan vazifalarning uddasidan chiqadir, deb o'ylash mumkin ham emasdir..." [25], deya ma'ruzalarida haqqoniy tanqidiy fikrlarni bergan. F.Xo'jayevning fikrlarida qanchalik haqiqat bo'lmasin, sho'ro tuzimi shaxslari tomonidan butunlay teskari talqin etildi. Uning ijtimoiy kelib chiqishiga alohida urg'u berilib, burjua tuzumi tarafdori, milliy aksil inqilobchi kuchlarning rahnomosi sifatida "fosh etishga" intildi.

Stalin hukumati boshqaruvda to'liq foydalanib bo'lganidan keyin F.Xo'jayevni ishonchsiz unsurlar safiga kiritib oradan yo'qotish payiga tushdi. Uning atrofida "maxsus missiya"lar bo'yicha turlicha xiyla nayranglar tashkil etila boshlandi. U ana shunday og'ir bir siyosiy vaziyatda F.Xo'jayev 1936 yilda "Sotsialistik O'zbekiston yuksalishida" deb nomlangan asarini nashr ettirdi. Asarda zamon talabidan kelib chiqib boshdan Stalin siyosatini madh etishga bag'ishlaydi. Bu asar F.Xo'jayevning o'ziga xos so'nggi hisoboti ham edi. U 1924-1934 yillardagi raqamlarni solishtirib, "Butun paxta maydoni 255,6 mingga edi, hozir 876,3 ming gektaga yetdi... 1924 yilda biz faqat 4 ta teatrta ega edik, hozir 38 ta teatrta egamiz. Tikuvchilik mahsulotlari so'nggi shu 4 yil ichida 9 martoba. Poyabzal 2 marta, sement ishlab chiqarish- 4 marta... o'sganligi"ni va boshqa kadrlar masalasiga oid ma'lumotlarni ham asarida ta'kidlab o'tadi[26]. Mahalliy rahbar kadrlar shijoat bilan faoliyat yuritib, sovet siyosatiga sodiqliq bilan ish yuritsada taqdirlari doimiy ayanchli, qismati oilasi bilan ham birgalikda og'ir tugagan.

O'zbekistonning XX asrdagi davlat va siyosat arboblari mahalliy rahbar kadrlari orasida U.Yusupovning ham alohida o'rni bor. U o'tgan XX asrning 20-50 yillarida paxta tozalash zavodining shibbalovchisidan respublika Kompartiyasi MKning birinchi kotibi, SSSR paxtachilik ministrigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. 1929 yildan U.Yusupov O'zbekiston Kompartiyasi Toshkent okrug qo'mitasi kotibi, O'zbekiston kompartiyasi Markaziy kotibi lavozimlarida ishladi. 1931-1934 yillari Kasaba Uyushmalari Butunittifoq Markaziy Kengashi (VSSPS) O'rta Osiyo byurosini boshqardi. 1936 yilgacha U.Yusupov

Moskvada o'qidi. O'zbekistonga qaytgach, O'zSSR Oziq-ovqat sanoati xalq komissari etib tayinlandi. 1937 yil sentabrda U.Yusupov O'zbekiston Kompartiyasi MKning birinchi kotibi etib saylandi. Ushbu lavozimga aynan U.Yusupovning saylanishi uchun bir necha sabablar bor edi. Birinchidan, o'sha paytlardagi ayblovlarda keng qo'llanilgan burjua-millatchi guruhlar" faoliyati qatnashmagan. Ikkinchidan, u boshqargan oziq-ovqat sanoati yaxshi ko'rsatkichlarga ega edi. Uchinchidan, partiyani tozalash kompaniyasi va "xalq dushmanlari"ga qarshi kurash bahonasi ostida mahalliy kadrlarni jismonan yo'q qilishda ham ishtirok etmagan. Ammo birinchi kotib bo'lgandan so'ng O'zbekistonda mavjud bo'lgan burjua-millatchilik tashkilotlariga qarshi markaziy va mahalliy matbuotda olib borilgan tashviqot ishlarida, tabiiyki, ishtirok etgan va unga rahbarlik qilgan.

U.Yusupov respublika rahbari bo'lib ishlagan yillarda uning tashabbusi asosida O'zbekistonda xalq hashari yo'li bilan yirik suv inshootlari– Katta Farg'ona kanali, Kattaqo'rg'on suv ombori va boshqalar qurildi. Ikkinchi jahon urushi yillarida SSSRning g'arbiy rayonlaridan O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan yirik korxonalarni tezlik bilan joylashtirish va ishga tushirish, yangi korxonalarni qurish, ularni ishchi-kadrlar bilan ta'minlash, frontga oziq-ovqat, paxta va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini muntazam yetkazib berishda, o'zbekistonliklarni fashizmga qarshi kurashga safarbar qilishda RSFSR, Ukraina va Belorussiyadan kelgan, urush tufayli boshpanasiz qolgan aholiga, ota-onasiz qolgan 100 minglab bolalarga mehribonlik va o'zbeklarga xos bo'lgan insonparvarlik sifatlarini ko'rsatishdi. U.Yusupov bunday ijobiy ishlarga bosh-qosh bo'ldi. Shu yillari O'zbekiston sanoatida tizimli o'zgarishlar yuz berdi. Respublikada ilgari mavjud bo'lmagan samolyotsozlik, stanoksozlik kabi sohalar paydo bo'lib, mahalliy yoshlardan minglab malakali ishchi kadrlar tayyorlandi. U.Yusupov rahbarligi davrida O'zbekiston agrar respublikadan agrar-industrial respublikaga aylandi[27]. Barcha milliy rahbar kadrlar qatori U.Yusupov ham kommunistik g'oyaga ishonganligi sabab sovet missiyasining topshiriqlarini vijdonan bajardi, respublikada zalvorli katta ishlar amalga oshirilishiga bosh-qosh bo'ldi. Umumiy ta'kidlaganda, mintaqada sovet tuzumi ravnaqi uchun astoydil mehnat qildi. Sadoqat bilan qilgan xizmatlari evaziga Stalin tomonidan qo'llab-quvvatlangan mahalliy rahbar kadrlardan biri ham bo'ldi.

Munavvar Qori Abdurashidxonov: "Yevropaliklarning o'zlari mahalliyashtirish g'oyasini inkor qilishadi. Mahalliy xodimlarni lavozimga tayinlashadi, lekin "mos emas" deb ularni tez xaydashadi, milliy kadrlarni tayyorlashmaydi. Bilimli insonlar "ideologiya" sababli chetlashtiriladi, ruslarga hech qanaqa to'siq qo'yilmaydi". Ushbu hisobot materiallarida mahalliyashtirish masalasiga milliy matbuotning munosabati ham o'rganilgan. Jumladan, "Mushtum" jurnalida keltirilgan maqolada shunday deyilgan: "O'zbek davlat kinosida bor-yo'g'i bitta qorovul o'zbek. Garchi mahalliyashtirish favqulotda masala bo'lsa ham lekin unga intilsang millatchilik aybini olasan..." [28]. O'zbekiston hukumati mahalliy tashkilotlarga ishchilarni ko'tarishni kuchaytirish, ko'tarilgan ishchilarni madaniy va siyosiy darajasini oshirish hamda ularni yangi ish joyida muqim qilish bo'yicha ish olib borishni ta'minlashni topshirdi.

M.Norjigitovanning tadqiqotida "Milliyashtirish holati shu vaqtda markaziy xo'jalik apparatlarida 27,8% ni tashkil etgan"ligi ko'rsatilgan[29]. 1927 yil davlat apparati va markaziy idoralarda ishlovchi 1.500 rahbar kadrdan bor yo'g'i 317 nafari mahalliy millat vakillari edi. Bu davrda respublikada davlat apparatini mahalliyashtirish va o'zbek siyosiy elitasini shakllantirishda qator muammolar bo'lib, bu boradagi asosiy to'siqlardan biri-buyuk davlatchilik shovinizmi asosida ekanligi edi.

Tub yerli aholini rahbar lavozimlarga ko'tarish muammosini tezroq va sifatliroq xalq etish uchun 1928 yil 26 iyulda O'zbekiston hukumati yana maxsus qaror qabul qildi. Respublika, sovet, kasaba uyushmasi tashkilotlari yuqoridagi qarorni amalga oshirish uchun ilg'or ishchi dehqonlarni rahbar ishlarga ko'tarishga e'tibor berishdi. Chunonchi,

1928 yil 268 ishchi rahbarlik ishiga ko'tarildi, shulardan, 198 nafari mahalliy millatga mansub edi[30]. 1928 yil sentabr oyida O'zbekiston hukumati Markaziy apparatlarida 2037 xodim ishlagan bo'lsa, shulardan 23,3 foizini mahalliy millatga mansub xodimlar, 9,6 foizini ishchilar, 9,6 foizini dehqonlar tashkil etgan edi[31]. Bu misollar shundan dalolat beradiki, rahbarlik lavozimlarida tub aholi vakillari nihoyatda kam edi. Ko'p joylarda ularning soni yildan-yilga kamayib ketayotgan edi. Rahbarlik lavozimlariga ko'tarilayotgan kishilarning ishchanligi, siyosiy jihatdan yetukligi, tashkilotchilik qobiliyati, savodliligi darajasi mazkur sohadagi ishning natijasini belgilab berardi. Obyektiv holatni hisobga olib, tashkilotlar, kasaba uyushmalar, rahbar lavozimlarga yangi ko'tarilgan hodimlarni maktablarda, kurslarda, seminarlarda o'qitib, savodxonlik, siyosiy, madaniy darajalarini, ishbilarmonlik malakalarini oshirish borasida samarali faoliyat ko'rsatdilar. Sanoat korxonalarining rahbarlariga tub millatga mansub shaxslarning u yoki bu darajadagi yuqori foizini ta'minlash talabini qo'yish xo'jalik vazifalarini xal qilish, madaniy-maishiy sharoitlar yaratish imkoniyatlari bilan jiddiy ravishda qarama-qarshi bo'lib qolgan. Bunda milliy kadrlarni yetishtirishga va ularning umumiy saviyalarini yuksaltirishga alohida e'tibor berdilar. Ular davlat apparatini mustahkamlashda faol ishtirok etdilar va xalq ommasiga rahbarlikni mohirlik bilan olib bordilar. Sovet rahbarlari orasida O'zbekiston Kompartiyasi MK mas'ul kotibi V.V.Ivanov: "...o'zbeklardan bolshevik chiqmaydi va o'zbek partiya tuzish ahvolidan emas". Shuningdek xizmatga olinayotgan xodim rus tilini bilmasa, aksariyat hollarda u ishga olinmagan[32]. Sovet hokimiyati butun ittifoqda, jumladan, O'zbekistonda o'ziga so'zsiz itoat etadigan, kommunistik partiya va sovet davlati ko'rsatmalari, qarorlarini to'la-to'kis bajaradigan siyosiy elitani shakllantirish borasida qanchalik harakat qilmasin, buni to'la uddalay olmadi. Chunki tayyorlangan rahbar kadrlarning aksariyatida O'zbekiston va o'zbek xalqiga bo'lgan muhabbatni, insonparvarlik xislatlarini to'liq tugatishning iloji yo'q edi. Shuning uchun ham kommunistik partiya va sovet davlati idoralarida faoliyat ko'rsatgan o'zbek xalqiga mansub partiya va sovet-xo'jalik elitasi vakillari markazning mahalliy sharoitga mos kelmaydigan, mustamlakachilik xususiyatiga ega bo'lgan siyosatiga qarshilik ko'rsatishdi.

1930 yilda O'zSSR MIQda ishlayotgan 97 kishidan, 43 tasi mahalliy millat vakillaridan edi; O'zSSR XKKda esa 75 xodimdan 21 tasi, Sanoat xalq komissarligidagi 63 xodimdan 5 tasigina mahalliy millat vakillari edilar. Respublika Davlat reja qo'mitasida 50 kishidan iborat umumiy xodimlar o'rtasida birorta ham mahalliy millat vakillari bo'lmagan[33]. Mahalliy millat vakillarini davlat boshqaruv muassasalariga va u bilan bog'liq tashkilotlarga jalb etish markaz siyosiy maqsadlariga mos kelmas edi. Markazdan yuborilgan rahbar xodimlar ko'proq boshqaruv apparatida ishlaganlar. Bunday rahbarlar qo'yilishi sovet missiyaga mos tushgan holatda markaz manfaatlariga xizmat qilardi. O'zbekistonda esa kadrlarni sanoat sohalari uchun ishchilar malakasini oshirish kurslari tashkil etilar, bunday kurslarda partiyaning mahalliy millat rahbar va ishchilarining siyosiy va huquqiy ongini shakllantirmaslik dasturi amaliyotida muhim vosita bo'lgan. Shuning uchun ham bolsheviklar o'zlarining targ'ibot va tashviqot, ma'muriy buyruqbozlik usullari orqali rahbar kadrlarni emas, balki, sovetlar tarkibida mahalliy millat ishchilari salmog'ini yilma-yil oshirib borishga harakat qilgan.

Sovet hukumatining "tashabbusi" bilan respublika oliygoh va bilim yurtlarida mahalliy millat vakillari ko'payishi lozim edi. Shunga ko'ra, Qo'qondagi mexanika bilim yurtiga qabul qilinganlarning 75%i mahalliy millat vakillaridan iborat bo'lishi lozimligi haqida 1930 yil 6 oktabrda O'zbekiston SSR XKKning sanoat kadrlari tayyorlash bo'yicha boshqarma majlisida ko'rib chiqildi, lekin qabul qilingan 146 talabadan, 96 tasi yevropalik va 50 tasi mahalliy millat vakillaridan iborat bo'lgan. Shuning uchun bilim yurti direktori qabul qilinganlarni tarqatib yangi qabul komissiyasini tuzish va qabul qilishda 75 foizi mahalliy millat vakillaridan iborat bo'lishini ta'minlashga yuklatilgan[34]. Markaz

Moskva, Leningrad, Saratov, Omsk, Sverdlovsk va boshqa shaharlarning oliy o'quv yurtlari va bilim yurtlari butun O'rta Osiyo respublikalari uchun rahbar kadrlar va muhandis-texnik ishchilar sinfini tayyorlab berdi. Masalan, Toshkent to'qimachilik korxonasi qurilish bilan Moskvada maxsus mutaxassis to'qimachilar tayyorlandi. Ular yengil sanoat mehnat instituti va Leningraddagi Xalturina nomli fabrika FZU maktablarida, Tverdagi "Proletarka" tresti, Moskva oblasti Zaraysk shahridagi "Krasniy Vostok" trestida ta'lim oldilar. Jumladan, 1933-1935 yillarda Toshkent to'qimachilik korxonalariga O'rta Volga hududidan-1000, Moskva va Leningraddan-449, Klimov fabrikasidan-178 ishchi yuborilgan[35]. Bundan tashqari Toshkent to'qimachilik korxonalariga ish o'rgatish uchun 1934-1935 yillarda 424 nafar malakali mutaxassislar kelgan[36]. Frunze nomli Moskva zavodi va Oktabr inqilobi nomli Malaxov fabrikasidan ham O'zbekiston to'qimachilik korxonalari uchun 127 ta ishchi-ustalar yuborilgan[37]. Ba'zi muassasalarda faqat yevropa millatiga mansub xizmatchilar ishlaganini, mahalliy millatga mansub xodimlarning turli-tuman bahonalar bilan ishga qabul qilinmaganini ko'rish mumkin. Masalan, Toshkent yangi shahar ijroqo'mi mahalliy ishchilarni xizmatga olmagan. Smeta tuzilganida tajribachilar xarajatining hisobga olinmagani bahona qilinib, ishga qabul qilishning imkoni yo'qligi qayd etilgan[38].

1930-1940 yillarda ham bu usuldan keng foydalanish jarayoni yuz berdi. Katta yoshlilar o'rtasida ham savodsizlikni tugatish masalasiga kommunist bolsheviklar partiyasi va sovet hukumati bir paytda e'tibor ham berdi. 1938 yil respublika bo'yicha savodli aholi 45% ni tashkil etgan, savodsiz aholi esa 55% bo'lgan[39]. Shu sababli 12 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan ishlovchilar orasida savodsizlikni tugatish, ularning umumiy ta'lim darajasini oshirish ishlari amalga oshirila boshladi[40]. 1940 yil O'zbekistonda 771.500 savodsiz kishi bo'lib savod maktablariga tortilganlar 588.300 kishi bo'ldi. Bular uchun 31400 savodsizlikni tugatish guruhlari ochilgan[41].

4. Conclusions

Xulosa qilib aytganda, nomenklatura tizimi milliy rahbar kadrlarni markazlashgan boshqaruv mexanizmiga to'liq bo'ysundirdi. Ushbu tizim respublikada mustaqil boshqaruv an'alarining shakllanishini chekladi va kadrlar siyosatida mafkuraviy ustuvorlikni mustahkamladi.

References

- [1] Iymanova D.A. O'zbekistonda "nomenklatura" tizimi milliy rahbar kadrlarga qo'yilgan ijtimoiy, siyosiy talablar (1925-1941 yillar) // Sharq tarixi, siyosati va huquqi jurnali. – 2024. – T. – B. 141.
- [2] ЎзР МА, 17-фонд, 1-руҳат, 784 а-йиғма жид, 137-140-варақлар.
- [3] Iymanova D.A. Social And Political Requirements To National Leaders In The Soviet Period And Their Practice (1925-1941) //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №12. – С. 25.
- [4] Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Масъул муҳаррирлар Р.Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ.Ражабов – Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти. – Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ, 2019. – 403б.
- [5] XII съезд РКП (б). Стен. отчет. – М.: 1968. С. 514.
- [6] О'зР PDA, 60-фонд, 1-ро'ухат, 3742- yig'ma jild, 139-142-varaqlar.
- [7] Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2015. 2-жид, 265-266-бетлар.
- [8] Iymanova D.A. O'zbekistonda "nomenklatura" tizimi milliy rahbar kadrlarga qo'yilgan ijtimoiy, siyosiy talablar (1925-1941 yillar) // Sharq tarixi, siyosati va huquqi jurnali. – 2024. – T. – B. 144.
- [9] Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК (1925-1986). В 4-х томах. Том 1. (1925-1927). – С. 122.
- [10] O'zbekiston MA, 86-фонд, 1-ро'ухат, 4463-ish, 4-varaq.
- [11] O'zbekiston MA, 837-фонд, 3-ро'ухат, 593-ish, 7-varaq.
- [12] O'zbekiston MA, 95-фонд, 1-ро'ухат, 434-yig'ma jild, 319-varaq.

- [13] O'zbekiston MA, 5451-fond, 1-r o'yhat, 200-yig'ma jild, 3,4-varaq.
- [14] Акилов К.А., Гулямова М.А. Советская интеллигенция Узбекистана. 1 книга. – Ташкент, 1978. 114-бет.
- [15] O'zbekiston MA, 95-fond, 1-ro'yhat, 434-yig'ma jild, 320-varaq.
- [16] O'zbekiston MA, 95-fond, 1-ro'yhat, 434-yig'ma jild, 321-varaq.
- [17] O'zbekiston MA, 95-fond, 1-ro'yhat, 434-yig'ma jild, 320-varaq
- [18] Известия", 1 июля 1927 г.
- [19] Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Масъул муҳаррирлар Р.Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ.Ражабов. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти. – Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ, 2019. – 416 б.
- [20] O'zbekiston PDA, 58-fond, 8-ro'yhat, 613-ish, 25-varaq.
- [21] Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Масъул муҳаррирлар Р.Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ.Ражабов. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти. –Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ, 2019. – 411 б.
- [22] O'zbekiston PDA, 58-fond, 2-ro'yhat, 20-yig'ma jild, 70-varaq
- [23] Шухрат Эргашев, Тўлқин Бобоматов XX аср: тақдирларда акс этган тарих. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 418 б.
- [24] Шухрат Эргашев, Тўлқин Бобоматов XX аср: тақдирларда акс этган тарих. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 419 б.
- [25] Икки доклад. Ф.Хўжаев. – Тошкент: 1932. Самарқанд. Ўздавнашр. 50-51 бетлар.
- [26] Тарихнинг номаълум саҳифалари: ҳужжат ва материаллар. К.1. масъул муҳаррир Н.Каримов. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. - 53 б.
- [27] Шухрат Эргашев, Тўлқин Бобоматов XX аср: тақдирларда акс этган тарих. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 465-466 бетлар.
- [28] Рашидов О. Ўзбекистонда совет бошқаруви структурасидаги маҳаллийлаштириш сиёсати (1917-1933 йй). Монография. – Тошкент: "НАВРЎЗ", 2019. -122 Б.
- [29] Норжигитова Н. XX асрнинг 20-30 йилларида Ўзбекистонда сиёсий элитанинг миллий таркиби. "Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар: тарих ва ҳозирги замон" мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари. – Т.: 2003. – Б.127.
- [30] O'zbekiston MA, R-95-fond, 1-ro'yhat, 230-yig'ma jild, 156-varaq.
- [31] O'zbekiston MA, 95-fond, 1-ro'yhat, 2307-yig'ma jild, 158-varaq.
- [32] O'zbekiston PDA, 58-fond, 4-ro'yhat, 596-ish, 16-varaq.
- [33] Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. - 402 б.
- [34] O'zbekiston MA. R-89-fond, 1-ro'yhat, 212-yig'ma jild, 12-varaq.
- [35] O'zbekiston MA, R-88-fond, 9-ro'yhat, 3108-yig'ma jild, 41-varaq.
- [36] Мельникова Т.С. Формирование промышленных кадров в Узбекистане. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1956. – С.95.
- [37] Ульмасбаев Ш.Н. Промышленное развитие Советского Узбекистана. – Ташкент, 1958. – С. 130.
- [38] Рашидов О. Ўзбекистонда совет бошқаруви структурасидаги маҳаллийлаштириш сиёсати (1917-1933 йй). Монография. – Тошкент: "НАВРЎЗ", 2019. -117- бет.
- [39] O'zR MA, R-95-fond, 1-ro'yhat 433-yig'ma jild, 121-varaq
- [40] Толеханов А.О. национальных советских кадров. – Революция и национальности. Власт советов, 1935. С.66.
- [41] O'zbekiston MA, R-95-fond, 1-ro'yhat, 433-yig'ma jild, 122-varaq.

Nashriyot qaydi: Ushbu jurnalda chop etilgan barcha materiallarda bayon qilingan fikrlar, qarashlar va ma'lumotlar faqat muallif(lar) va materialni taqdim etgan shaxs(lar)ga tegishli bo'lib, jurnal tahririyati yoki muharrir(lar)ning rasmiy nuqtai nazarini ifoda etmaydi. JEP (The Journal of Economics and Pedagogy) hamda uning muharrir(lari) mazkur nashrda keltirilgan g'oyalar, usullar, ko'rsatmalar yoki mahsulotlardan foydalanish natijasida insonlar yoki mol-mulkka yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

Disclaimer/Publisher's Note: The statements, opinions and data contained in all publications are solely those of the individual author(s) and contributor(s) and not of JEP and/or the editor(s). JEP (The Journal of Economics and Pedagogy) and/or the editor(s) disclaim responsibility for any injury to people or property resulting from any ideas, methods, instructions or products referred to in the content.